



DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISHDA KIM OSHDI SAVDOSINING ROLI

Z.D.Sanjarov

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yetakchi mutaxassisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada davlat mulkini xususiylashtirishda ommaviy savdolarning roli, ularning mazmuni va o'zaro aloqadorligi tadqiq etilgan. Shuningdek, respublikada xususiylashtirish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat mulki, davlat ishtirokidagi korxonalar, elektron savdo platformasi, auksion, tanlov.

Abstract: The article examines the content and interrelationship of the role of public auctions in the privatization of state property and also develops scientific proposals and practical recommendations for more effective organization of privatization processes in the republic.

Keywords: state property, state-owned enterprise, e-commerce platform, auction, competition.

Аннотация: В статье исследуются содержание и взаимосвязь роли публичных торгов в приватизации государственного имущества, а также в нем разрабатываются научные предложения и практические рекомендации по более эффективной организации приватизационных процессов в республике.

Ключевые слова: государственное имущество, предприятие с участием государства, электронная торговая площадка, аукцион, конкурс.

KIRISH

Iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish masalasi mustaqillikka erishilgan yillardan boshlab hozirgi kunga qadar har yili davlat tomonidan amalga oshirilishi e'tibor qaratiladigan asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Xususiylashtirish jarayoni davlat ulushining qisqartirilishi bilan bog'liq bo'lib, kelgusida iqtisodiyotda xususiy mulk egalari ulushining ortishi hamda mulkdan samarali foydalanish darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, umumiy samaradorlikni oshirish maqsadida davlat mulkini xususiylashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu jarayonda, bir tomondan, davlat mulkini samarali xususiylashtirish, ikkinchi tomondan esa davlat mulkini xarid qiluvchilar uchun ma'lumotlarning oshkoraligi va shaffofligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, kim oshdi savdosi usulidan foydalanish xususiylashtirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Davlat mulkini xususiylashtirishda kim oshdi savdosi usullaridan foydalanish ham davlat, ham xaridorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shu jihatlarni inobatga olgan holda, quyida mazkur masalalar bo'yicha ilmiy mulohazalarimizni keltirib o'tamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

B. Mamatov va S. Mamatovalar hammuallifligida tayyorlangan ilmiy tadqiqot ishlarida davlat mulkini xususiylashtirishning institutsional asoslari va tendensiyalari, xususiylashtirish jarayonida investorlarni jalb qilish masalalari, davlat mulkini baholash mexanizmi hamda xususiy kapitalni jalb qilish orqali davlat aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan [7].

N. B. Mamamatkarimov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida davlat ishtiroki mavjud tijorat banklarida davlat ulushini xususiylashtirishning nazariy va amaliy jihatlarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda davlat ulushini xususiylashtirishda IPO mexanizmlaridan foydalanishning amaliy ahamiyati ilmiy asosda yoritib berilgan. Shuningdek, tijorat banklaridagi

davlat ulushini xususiylashtirish zarurati ham asoslab berilgan. Maqolada O'zbekistonda davlat ulushi mavjud tijorat banklarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni ham tahlil qilingan [8].

T. Berdiev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda xalqaro tajribada tijorat banklarida davlat ulushini xususiylashtirish jarayonining amaldagi holati va ushbu jarayonni amalga oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot doirasida Jahon bank tizimining eng yirik ishtirokchilaridan biri bo'lgan ICBC bankining xususiylashtirish jarayoni tahlil qilingan. Bankning xususiylashtirishga tayyorgarlik ko'rishi, qarorlar qabul qilishi, yirik birjalarda listingdan o'tishi va shu orqali xususiylashtirishni jadallashtirish jarayonlari ilmiy asosda o'rganilgan [9].

O. Xolmirzaev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulklarning auksion savdolarining shakllari, kim oshdi savdolarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati hamda ushbu savdolarini tashkil etishda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, auksion savdolarida mulkning ikkilamchi bozorini tashkil etish va rivojlantirishning ijobiy hamda salbiy jihatlari o'rganilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulklarning ikkilamchi bozorida elektron onlayn savdolar tizimini respublika va xalqaro miqyosda keng joriy etish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan [10].

J. Raxmatillaev tomonidan nashr etilgan ilmiy maqolada ko'chmas mulk obyektlari joylashgan yer uchastkalarini xususiylashtirishning iqtisodiy mohiyati va ularni tashkil etishning huquqiy asoslari bo'yicha ilmiy qarashlar bayon etilgan. Tadqiqotda mamlakatimizda amaldagi qonunchilikni isloh qilish zarurati, xususiylashtirish munosabatlarini huquqiy tartibga solishning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli hamda xususiylashtirish jarayonlarini tashkil etuvchi tashkilotlarning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, maqolada kim oshdi savdolarini tashkil etishning huquqiy asoslariga ham batafsil e'tibor qaratilgan [11].

J. Qurbonov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida davlat ishtirokidagi korxonalarda moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish, davlat mulkini xususiylashtirish va davlat ishtirokidagi korxonalar ustav kapitalida xorijiy investorlar ulushini optimallashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda, ayniqsa, davlat ishtirokidagi korxonalariga xorijiy investorlarni jalb qilish jarayonini erkinlashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilganligi ko'rsatilgan [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat mulkini xususiylashtirishda kim oshdi savdosining roli mavzusini tadqiq etishda taqqoslash, tizimli tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kim oshdi savdosi butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan, musobaqalashish asosida xaridorni (g'olibni) aniqlashga yo'naltirilgan savdo turi hisoblanadi. Ushbu turdagi savdo bugungi kunda auksion yoki tanlov nomi bilan ham mashhur. Auksion odatda ochiq shaklda, ya'ni ommabop tarzda o'tkaziladi va uning boshlang'ich qiymati e'lon qilinadi.

Kim oshdi savdosi qatnashchilari savdo o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnomada belgilangan miqdor, muddat va tartib asosida zakalat puli to'laydilar. Agar kim oshdi savdosi o'tkazilmasa, ushbu to'langan zakalat qaytarib berilishi shart. Shuningdek, zakalat kim oshdi savdosida qatnashgan, biroq unda g'olib chiqmagan shaxslarga ham qaytariladi.

Kim oshdi savdosining tashkilotchisi tomonidan auksion yoki tanlov o'tkazilganda, natijalar bo'yicha belgilangan tartibda bayonnoma imzolanadi, ushbu bayonnoma esa shartnoma kuchiga ega bo'ladi.


Ta'kidlash joizki, auksion savdosi e'londa ko'rsatilgan sanada o'tkaziladi. Unda ishtirokchilar o'z taklif narxlarini tasdiqlaydilar, shuningdek, eng yuqori narxni taklif qilgan ishtirokchi auksion g'olibi deb hisoblanadi.

Tanlovga keladigan bo'lsak, u hujjatlar mezonlari va shartlariga muvofiq, ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan eng yaxshi taklifni tanlash orqali xaridorni aniqlash bo'yicha savdo shakli hisoblanadi.

Mamlakatimizda davlat mulkini xususiylashtirish zarurligi borasida ko'p bora so'z yuritiladi. Ushbu jarayonni amalga oshirish orqali respublikamizda quyidagilarga erishish mumkin:



Davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat ulushini qisqartirish;
 Xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
 Yangi ish o'rinlarini yaratish;
 Byudjetga qo'shimcha daromad keltirish;
 Xususiy sektorni barqaror rivojlantirish;
 Hududlarni iqtisodiy rivojlantirish (1-rasm).



1-rasm. Davlat mulkini xususiylashtirishning afzalliklari¹

Respublikamizda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirish maqsadida so'nggi uch yil davomida 5 mingga yaqin aktivlarni realizatsiya qilishni nazarda tutuvchi uchta yirik xususiylashtirish dasturi qabul qilindi.

Shuningdek, mamlakatimizda davlat mulkini boshqarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va davlat mulkiga egalik qilish asoslarini belgilovchi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'RB-821-son² Qonuni qabul qilingan.

Ushbu qonunning 8-moddasida davlat mulkini jismoniy va nodavlat yuridik shaxslarga realizatsiya qilish, shuningdek, ijaraga va ishonchli boshqaruvga berish ommaviy savdolar orqali (auksionlar, tanlovlar, muzokaralarga ommaviy taklif etish yo'li bilan va boshqalar) amalga oshirilishi lozimligi belgilangan. Bu talab qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha tatbiq etilishi nazarda tutilgan.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi "Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5666-son³li Farmoniga muvofiq, agar Prezident hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat mulkini jismoniy va nodavlat yuridik shaxslarga realizatsiya qilish ommaviy savdolar, shu jumladan "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali amalga oshirilishi belgilangan.

Bundan tashqari, davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha eng zaruriy huquqiy asos bo'lgan 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan (33 yil avval) "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi 425-XII-son⁴ Qonun yangi tahrirda, ya'ni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'RB-907-son⁵li Qonun sifatida qabul

1 Adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tayyorlandi.

2 <https://lex.uz/docs/-6401697>

3 <https://lex.uz/docs/-4192433>

4 <https://lex.uz/docs/-127010>

5 <https://lex.uz/docs/-6800515>

qilindi. Unda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini oshirish maqsadida sakkizta usul aniq belgilab qo'yilgan.

Bunda, davlat mulklarini sotishda eng ko'p foydalaniladigan usullardan biri "E-auksion" elektron savdo platformasida o'tkaziladigan auksion va tanlov hisoblanadi. Ularning asosiy farqi shundaki:

Auksionga chiqariladigan davlat mulklari boshlang'ich narxda hech qanday shartsiz ochiq savdolarga qo'yiladi.

Tanlov esa xaridor zimmasiga muayyan majburiyat yuklatilgan taqdirda qo'llaniladi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-iyuldagi "Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2200-son⁶ qarori talablariga muvofiq, davlat aktivining boshlang'ich narxi pasaytirilgan holda sotilgan taqdirda, xaridorga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi miqdorida chegirma qo'llanilmaydi.


Misol uchun: Auksion savdolarida ma'lum bir davlat mulkini sotib olishni rejalashtirgan jismoniy yoki yuridik shaxs sotilayotgan aktivning narxi ma'lum muddatda sotilmaganda boshlang'ich qiymati pasaytirib borilishini onlayn tarzda kuzatishi mumkin. Biroq, aynan shu lotni oldindan kuzatib bormagan, ya'ni endigina qiziqish bildirgan talabgorlar uning birinchi savdoga qo'yilgan narxini onlayn tarzda ko'ra olmaydi (1-jadval).

1-jadval. Auksion va tanlov savdolarining farqli jihatlari⁷.

Turi	Boshlang'ich narx, so'm	Shartlar	Baholash mezon
Auksion	500 000 000	Mavjud emas	Eng yuqori narx taklif qilgan xaridor g'olib hisoblanadi
Tanlov	500 000 000	Xaridor ob'ektni sotib olganidan so'ng, uning hududidan mahalla yettiligi uchun yangi bino qurib berish majburiyatini oladi	100 ball asosida baholanadi. Shundan, 80 ballgacha – narx taklifiga, 20 ballgacha – moliyaviy va nomoliyaviy shartlarga

Chet el mamlakatlari tajribasida ham davlat mulki asosan yuqorida ko'rsatilgan 8 ta usuldan foydalangan holda xususiylashtiriladi. Bu esa, o'z navbatida, davlatimizning tezkor rivojlanayotganini hamda tadbirkorlik subyektlariga turli usullar orqali raqobat doirasida davlat mulkini qo'lga kiritish imkonini berishini ko'rsatadi.

"Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish" AJning "E-auksion" elektron savdo platformasida savdosi davom etayotgan davlat mulklari tahlil qilindi. Buni quyidagi diagramma orqali kuzatish mumkin (2-rasm).



2-rasm. "E-auksion" elektron savdo platformasida savdosi davom etayotgan davlat mulklari⁸

6 <http://lex.uz/docs/-2420491>

7 Huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

8 <https://e-auksion.uz> savdo platformasi ma'lumotlari asosida tuzildi.



Chet el mamlakatlari tajribasida ham davlat mulki asosan yuqorida ko'rsatilgan 8 ta usuldan foydalangan holda xususiyashtiriladi. Bu esa, o'z navbatida, davlatimizning tezkor rivojlanayotganini hamda tadbirkorlik subyektlariga turli usullar orqali raqobat doirasida davlat mulkini qo'lga kiritish imkonini berishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat aktivining boshlang'ich narxi pasaytirilgan holda sotilgan taqdirda, xaridorga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi miqdorida chegirma qo'llanilmasligini inobatga olgan holda, "E-auksion" elektron savdo platformasida baholangan qiymati pasaytirilgan davlat mulklarining birinchi marotaba (baholangan) qiymatini ko'rsatish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Buning natijasida talabgorlar davlat mulkini sotib olishdan oldin ushbu aktiv bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi miqdorida chegirma berilishi yoki berilmasligiga ishonch hosil qilgan holda auksion savdolarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси;
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 19 февралдаги "Давлат mulki объектларидан самарали фойдаланиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5666-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 6 октябрдаги "Давлат mulki объектларини хусусийлаштириш тартиби тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида"ги 279-сон қарори.
4. Маматов , Б., & Маматова С. (2023). Иқтисодиётдаги давлат иштирокини қисқартириш ва хусусийлаштириш тенденцияси ҳолати таҳлили. *The Innovation economy*, 1(02), 20–28. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/381>
5. Маматкаримов Н. Б. IPO давлат банкларини хусусийлаштириш механизми // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2024. – Т. 4. – №. 6. – С. 352-358.
6. Berdiev, T. (2024). Осиё давлатларида тижорат банкларини хусусийлаштириш жараёни (ICBC банк мисолида). *Moliya va bank ishi*, 10(3), 26–31. Retrieved from <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/219>
7. Халмирзаев О.А. Ўзбекистон Республикасидаги кўчмас mulklarнинг иккиламчи бозорида ким-ошди (аукцион) савдоларини ташкил этиш ва ривожлантиришга таъсир қилувчи омиллар // *tadqiqotlar.uz*. – 2024. – Т. 35. – №. 3. – С. 142-145.
8. Рахматиллаев Ж. Кўчмас mulk объектлари жойлашган ер участкаларини хусусийлаштириш асослари ва тартиби // *Общество и инновации*. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 102-107.
9. Qurbonov J. Directions of promoting small businesses in industry sector // *International Finance and Accounting*. – 2018. – Т. 2018. – №. 2. – С. 119.